

Denov tuman Axborot – kutubxona markazi.

Axborot – bibliografiya xizmati.

“ Xalq shoiri”

(Abdulla Oripov tavalludining 82 yilligiga bag'ishlanadi)



Denov.

Сўз боши.

Abdulla Oripov – o‘zbek shoiri va jamoat arbobi. Abdulla Oripov ijodi zamonaviy o‘zbek adabiyotining yorqin sahifalaridan birini nomoyon etadi. Uning she‘rlarida insonning chuqur ruhiy dunyosi va xalq tarixi tahlil etiladi. 1998 yil Abdulla Oripov “O‘zbekiston qaramoni” unvoniga musharraf bo‘lgan.

Abdulla Oripov 1941 yil Qashqadaryo viloyati Kasonsoy tumani Nekuz qishlog‘ida tug‘ilgan. Uning otasi Orifboy Ubaydullo o‘g‘li mahalliy kolxoz vakili bo‘lgan. Oilada sakkiz nafar farzand–to‘rt o‘g‘il, to‘rt qiz bo‘lishgan, Abdulla Oripov o‘illardan eng kenjasi bo‘lgan. 1958 yil o‘rta maktabni oltin medal bilan tamomlab, Abdulla Oripov tahsilni O‘zbekiston Davlat universiteti o‘zbek filologiyasi fakultetining jurnalistika bo‘limida davom ettirdi.

1963 yil universitetni a‘lo baholar bilan yakunlab, “Yosh gvardiyachi” tahririyatida muharrir bo‘lib ishlaydi; (1967-1974) G‘ofu G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at tahririyati muharriri va bosh muharriri; (1974-1976) “Sharq yulduzi” jurnalida bo‘lim rahbari. 1972 yildan 1982 yilgacha Abdulla Oripov O‘zbekiston yuzuvchilar uyushmasida adbiy maslahatchi bo‘lib faoliyat yuritadi; (1982-1983) Yozuvchilar uyushmasining Toshkent viloyati bo‘linmasi kotibi; (1983-1985) “Gulxan” jurnali bosh muharriri; 1985 yildan kotib, 1996 yildan 2009

yilgacha O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi raisi. 1988 yil O'zbekiston mualliflik huquqini himoya qilish qo'mitasi raisi etib tayinlangan. "Qush" nomli o'zining ilk she'rlarini Abdulla Oripov universitetda o'qidan kezlari yozgan. Abdulla Oripovning "Bahor", "Birinchi muhabbatim", "Kuz", "Saraton", "O'zbekiston", "Munojotni tinglab", "Otello", "Sarob", "Dengizga", "Malomat toshlari", "Oltin baliqcha", "Yuzma-yuz", "Genetika" va boshqa sherlari o'zbek adabiyotining yorqin namunasi.

1965 yil uning ilk she'riy to'plami "Mitti yulduz" chop etilgan. Uning ketidan "Ko'zlarim yo'lingda" (1967), "Onajon" (1969), "Ruhim" (1971), "O'zbekiston", "Qasida" (1972), "Xotirota" (1974), "Yurtim shamoli" (1974), "Hayrat" (1979), "Najot qalasi" (1981), "Yillar armoni" (1984), "Ishonch ko'prigi" (1989), "Najot" (1992), "Haj daftari" (1995), "Saylanma" (1996) she'riy to'plamlari bosilib chiqdi.

Abdulla Oripov qalamiga "Jannatga yo'l" (1978), "Tabib va o'lim" (1980), "Sohibqiron" (1996) dostonlari mansub. 2000-2001 yillar to'rt tomlik saylanmasi bo'lmish Abdulla Oripovning "Sara asrlari" nashirdan chiqqan.

Abdulla Oripov 1992 yil 10 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi muallifi.

Адабиётлар рўйхати.

Oripov, Abdulla. Istiqlol manzaralari: Dostonlar/ A. OPripov/– T.: Tafakkur, 2011.–64 b.

UDK 821.512.133-1 O–68

Annotasiya: Mustaqilligimizning 20 yilligini katta quvonch bilan kutib olmoqdamiz. Albatta, to'ygga har kim o'z to'yonasi bilan borishni hohlaydi. Istiqlolimiz shundoq ulug'vor va zalvorli mavzuki, uni qamrab olish uchun o'nlab romanlar, yuzlab dostonlar yozish kerak bo'ldi. Aziz kitobxon, men ushbu tizmalarimda o'zim guvoh bo'lgan ko'pgina hayotiy voqealarning ayrimlarini qalamga oldim, xolos. Bu o'rinda menga xalqona ohang va qissago'ylik maroqli tuyuldi.

Oripov, Abdulla. Tanlangan asarlar: To'rt jildlik / Tahrir hay'ati: O. Sharafiddinov, M. Qo'shjonov, E.Vohidov va bosh. – T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr., 2001. – 3-jild. Tarjimalar. –384 b.

ISBN 5-635-01992-7 O–68

Annotasiya: Shoir “Tanlangan asrlar”ining uchinchi jidiga jahon mumtoz she'riyati durdonalaridan qilingan tarjimalar kiritilgan. Ital'yan shoiri Dante Alig'eri qalamiga mansub “Islohiy komediya”ning “Do'zax” kitobi, Lesya Ukarainkaning “Mog'oralarda” va En'yo Xel'taining “Soqov ritsar” she'riy dramalari, taniqli shoirlar she'rlaridan saralab qilingan tarjimalar albatta, didi baland she'rxonlarni xushnud etadi.

Oripov, Abdulla. Saylanma: She'rlar / A. OPripov/– T.: Ma'naviyat, 2007.–158 b.

ISBN 978-9943-04-054-0 O–68

Annotasiya: Abdulla Oripov jonajon O'zbekistonimizni uning o'tmishi, buguni va kelajagini, uning betakror tabiatini, mehnatkash xalqimizning azmu-shijoatini, mamalakatimizning mustaqilligini avj pardalarda kuylagan va kuylayotgan shoir. Ushbu to'plamga sevimli shoirimizning

o'quv dasturiga kirgan she'rlari bilan qatorda uning turli yillarda yozildan eng sara asarlari ham kiritildiki, ular shoir ijodi bilan yanada kengroq va teranroq tanishish imkonini berdi.

Oripov, Abdulla. Sen bahorni soginmadingmi?: She'rlar. – T.: Yozuvchi, 1991.– 32 b.

ISBN 5–8255–0028–6 O–68

Annotasiya: Siz Abdulla Oripov nomini yaxshi bilasiz Uning kungina she'rlari sizga allaqachon qachon yod bo'lib ketgan. Suyukli shoirimiz bu yil 50 yoshga to'ldi. Bu qutlug' sana faqat Abdulla Oripovning emas, o'zbek she'riyatining ham tabarruk bayramidir. Mana shu ayyomda hassos shoir ijodidan Siz– muhtaram she'rxonlarga bir guldasta tuzib taqdim etdik.

Vaqtli matbuot nashirlarda.

Jo'rayev, A. “Ruhim”dan “everest va ummon”gacha: [O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov tavalludining 80 yilligi haqida] Yangi O'zbekiston.–2021.–17 fevral.

Jumaniyozov, R. Ma'naviyat darg'asi, el dilining hamrozi: [O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov tavalludining 80 yilligi haqida] Yangi O'zbekiston.–2021.–16 mart.

Tojmamatova, M. O'z xalqining ovozi bo'lgan ijodkor : [O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov tavalludining 80 yilligi haqida] Yangi O'zbekiston.–2021.–19 mart.

Karimov, N. Nurli ohanglar bilan yo'g'rilgan she'riyat: [O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov tavalludining 80 yilligi haqida] Yangi O'zbekiston.–2021.–19 mart.

Tojimamatova, M. Mangu yorug' maskanim manim: [O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov tavalludining 80 yilligi haqida] Yangi O'zbekiston.–2021.–19 mart.

Said, S. Sandiqdan chiqqan qaldirg'ochlar: [O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov tavalludining 80 yilligi haqida] / S. Said // Yangi O'zbekiston.–2021.–20 mart.

Abdullayeva, Sh. Xalq shoiri zamondoshlar xotirasida: [Atoqli shoir, O'zbekiston qahramoni Abdulla Oripov tavalludining 80 yilligi haqida] / Sh. Abdullayeva // Chag'oniyon.–2021.–25 mart.

Denov tuman Axborot-kutubxona markazi:

Axborot bibliografiya xizmati:

Isayeva. M

Muhamadiyeva. M